

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**5111700-Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish
yo`nalishi, 3-bosqich, 306-guruh talabasi
Mirtoyeva Nazokatxon Abdulpatto qizining**

KURS ISHI

Mavzu: Hikmatlar va hadislarini o`qish uslubiyoti.

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dotsent M.Hamidova

Namangan-2014-yil

Mavzu: Hikmatlar va hadislarni o'qish uslubiyoti.

Reja:

Kirish.

- 1. Hikmatlar va hadislar haqida ma'lumot.**
- 2. Hikmatlar va hadislarni ilmiy-uslubiy adabiyotlarda yoritilishi.**
- 3. Hikmatlar va hadislarning tarbiyaviy ahamiyati.**

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Yurtboshimiz I.A.karimov «Har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o`rni, mavqei va shuhrati bevosita o`z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog`liqdir<sup>1</sup> deb aytganlaridek, yoshlarga ta`lim-tarbiya berishda xalq og`zaki ijodining, hadisnavis allomalarimiz qoldirgan boy meroslarning o`rni kattadir.

Ma`lumki, keyingi yillarda yurtimizda va hattoki, jahon miqyosida ro`y bergan va ro`y berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o`zgarishlar, ayniqsa, O`zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgach, «O`zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonunning e`lon qilinishi o`zbek tili va adabiyotiga munosabatni, uning mavqeini tubdan o`zgartirdi.

Ular umumta`lim maktablaridagi ta`lim-tarbiya ishlariga ham o`zining jiddiy ta`sirini ko`rsatdi. Shu ijtimoiy-siyosiy va tarixiy voqealar asosida umumta`lim maktablarning boshlang`ich sinflarida olib boriladigan o`qish darslarining bir necha loyihalari e`lon qilindi. O`qish dasturining loyihasi avvalgi, shu paytgacha qo`llanib kelinayotgan dasturdan birinchi navbatda, o`zbek adabiyoti tarixini to`la va izchil ravishda o`rganishga jiddiy e`tibor berilgani bilan farqlanadi. Yangi loyihaning yana bir afzalligi va yutug`i shundaki, unda umumta`lim maktab boshlang`ich sinf o`qituvchilariga o`qish dasturidagi xalq og`zaki ijodi, shuningdek, ayrim yozuvchilar, shoirlar va ularning asarlari o`rniga ma`lum viloyat, shahar va tumanlarda, hattoki, qishloqlarda yashab ijod etgan, adabiyotimiz taraqqayotiga ma`lum darajada hissa qo`shgan xalq ijodkorlari, shoirlar, yozuvchilarning asarlarini kiritish mumkinligi ko`rsatib o`tilganki, bular olqish va maqtovga sazovordir. Chunki dono xalqimiz iborasi bilan aytganda, vatanparvarlik o`z ostonangdan boshlanadi. Shunga ko`ra, o`quvchilarimiz jahon adabiyoti, hozirgi zamon o`zbek adabiyoti, respublikamizning boshqa viloyatlari, shaharlari xalq og`zaki badiiy ijodi va yozma adabiyoti namoyandalari, ularning asarlari bilan birga, o`zlari yashab turgan viloyat, shahar, tuman, hatto qishloq folklori va adabiyoti vakillari, ularning badiiy asarlari namunalari bilan ham tanish

¹ Qurbonov Sh. vaboshqalar. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1998. –B. 78.

bo'lsalar foydadan holi bo'lmaydi. O'quvchilar o'z ona-yurtida ham adabiyotimiz va folklorimizning iste'dodli ijodkorlari, yozuvchilari bo'lganliklari hatto shunday kishilar o'z oralarida ham yashayotganligini tushunib yetadilar. Ularda o'z ona-diyoriga nisbatan mehr-muhabbat hissi tug'iladi, rivojlanadi. Bu o'z navbatida o'quvchilarda ona-Vatanga, o'zbek xalqi bilan faxrlanish his-tuyg'ularini paydo qiladi va o'stiradi. Biz ana shularni e'tiborga olgan holda hadislar, hikmatlar va tez aytishlar xususida ilmiy izlanish olib bordik. To'g'ri, bu xususida folklorshunos olimlarimizning bir qator ishlari mavjud. Lekin ularning ishlari aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallab olib borilmagani, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qish darslikdalarida bir qator hadislar, hikmatlar va tez aytishlar mavzularga moslab berilgani, bularni o'qitishda ana shunda uslubiy qo'llanmalarining o'ta zarurligini e'tiborga olgan holda biz «Hikmatlar va hadislarini o'qish uslubiyoti» mavzusini kurs ishimizga asos qilib oldik. Mavzuni bugungi kun talablari asosida yoritish hozirgi kunimizning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardayoq ishongan. U o'zining eng noyob asarlarini so'z mo'jizasi bilan bunyodga keltirgan. Badiiy so'z-xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Hali yozuv nimaligini bilmagan vaqtlarda ham odamlar o'yin-kulgini, surat chizishni bilardi.

Xalqimiz bag'ridan ajoyib iste'dod sohiblari: mutriblar va naqqoshlar, roviylar va sangtaroshlar yetishib chiqqan. Ana shunday olis tarixning izlari, aks-sadolari xira bo'lsa-da xalq termalari va dostonlarida, ona allalari va bolalar o'yinlarida saqlanib qolgan. Maqol va matallar, ertak va afsonalar, latifa va dostonlar hamda qahramonlik dostonlariga xalqning aql-zakovati, ruhi va irodasi singdirilgan. Xalq ijodi shu xalqning donologi, san'ati mahsulidir. Bularning hammasidan bolani aqliy va jismoniy jihatdan sog'lom qilib o'stirishda, murg'ak qalbni chiniqtirishda samarali foydalanilgan².

² Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori.- T.: O'qituvchi, 2000.

Xalq og`zaki ijodi hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo`shiqlar, ertak va dostonlarda o`zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og`zaki ijodi o`zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g`oyalar bilan yo`g`rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog`liqligi bilan ham g`oyatda e`tiborlidir.

Bolalar folklori ko`pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi (alla), ba`zi hollarda bolalar o`z o`yinchoqlari asosida o`zlari ham alla, qo`shiq va ovutmachochlar to`qiydilar. Bularning hammasi bir bo`lib faqat yaxshi tarbiyani targ`ib qiladi.³

Biz bitiruv malakaviy ishimizning bu bobida o`qish darslarida hadislar, hikmatlarni o`rganishning ilmiy-uslubiy asoslari xususida keng va atroflicha fikr yuritishga e`tiborni qaratdik.

Biror ishni uddalashga bo`lgan ep, malaka, mahorat. Masalan: Qozog`istonlik polvonning hadisi ancha zo`r ekan, - dedi To`lamat mo`lov (S.Anorboyevning «Oqsoy» asari). Yo`q edi boyqushning hadis-hunari. («Alpomish» asaridan). Hadisini olmoq biror ish yoki hunarni juda yaxshi o`rganib, egallab olmoq.

Inson nasli inson bo`lib, qo`li ishga, tili so`zga kelib, bir-biri bilan muomala qila boshlabdi-ki, bu ajib, chigal, borlig`i sirlaridan iborat dunyoda yashash darsini o`qiydi va to shu kungacha bu dars tugamagan. Eng buyuk donishmandlar umrlarini ilmu fanga bag`ishlab, jahon kezib, dunyo-dunyo kitob o`qib, olamdan ketar chog`i, men hayotdan hech narsa bilmay ketmoqdaman, deganlar. Bundan ko`rinib turibdiki, hayot ilmini tugal anglamoqqa nafaqat bir insonning umri, balki insonlarning umri yetmaydi.

Yo`l yurib ketayotgan insofli odam bexosdan chuqurlikka toyib ketsa, o`rnidan turib, etak qoqib ketavermaydi. Men yiqildim, boshqalar yiqilmasin, deb chuqurni tekislab qo`yadi, yo bo`lmasa, birorta tayoqni suqib belgi qo`yib ketadi. Bu, ey yo`lovchi, ehtiyot bo`l, bu yerda chuqur bor, ko`zingga qara, degan ishora

³ Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. — Toshkent: Adabiyot jamg`armasi, 2006. —B. 6.

bo`ladi. Bobolarimiz tomonidan yaratilgan hadislar, hikmatlar va tez aytishlar ham ana o`sha tayoqdir.

Odamlar boshqalarni o`ylab bekilgan buloqning ko`zini ochadilar, daraxt ekadilar. Mendan keyin dunyoga keluvchilar tashnalik azobini ko`rmasinlar, ochlikdan, oftob tig`idan qiynalmasinlar, deya shunday qiladilar. Demak, bobolarimiz tomonidan yaratilgan hadislar, hikmatlar va tez aytishlar ham ana o`sha daraxtdir.

Odamlar madrasalar quradilar. Yo`l solib ko`prik qiladilar, karvonsaroylar tiklaydilar. O`zlaridan keyin keluvchilar ham imonli, ilm-ma`rifatli bo`lsinlar deb, ellar, yurtlar o`rtasida yaxshi bordi-keldilar bo`lsin deb shunday qiladilar. Hadislar, hikmatlar va tez aytishlar ham o`sha yo`l, ko`prik va karvonsaroylardir.

Hadislar, hikmatlar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o`tmish bilan hamnafaslik hissini uyg`otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko`prikdir.

Islom shariatining asosiy manbalaridan ikkinchisi sunnatdir. Sunnat rasulullohdan naql qilingan hadisi shariflar orqali shakllanadi. Hadisi shariflarda rasululloh alayhissalomning so`zlari, qilgan ish faoliyatlari va sahobalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari to`g`risida hikoya qilinadi. Shu uch xil uslubning har biri sunnat deyiladi.

Hadisi shariflarni yig`ib kitob shakliga keltirish, asosan, payg`ambarimiz alayhissalomning vafotlaridan keyin amalga oshirilgan. Bu sharaflı ish hijratning uchinchi asriga to`g`ri kelib keng quloq yoygan. Islom olamining o`sha paytdagi madaniy markazlaridan sanalgan Bag`dod, Kufa, Basra, Damashq, Buxoro, Samarqand, Urganch, Termiz kabi shaharlarda hadis fani bilan shug`ullanuvchi muhaddislar ko`p bo`lgan. Ular hadis to`plamlarini tuzishgan. Ular ichida eng ishonchli manba sanalganlari oltita bo`lib, ularni imom Buxoriy, imom Muslim, imom Abu Dovud, imom at-Termiziy, imom an-Nasoıy va imom ibn Moja tuzishgan. Bu buyuk muhaddislarning to`rt nafari turon-zaminlik bo`lgani bilan butun islom dunyosi miqyosida faxrlansa arziydigan ishni amalga oshirganlar.

Muhaddislik shu qadar sharaflı va sermashaqqat ishki, u kishidan zakovat, kuch-quvvat, fidoyilik, yuksak iqtidor va hofizani talab qiladi. Masalan, imom

Buxoriy jami olti yuz ming hadis to'plab, shulardan yuz ming «sahih» va ikki yuz ming «g'ayri sahih» hadislarini yod olganlar.⁴

Hikmatlar ham qadimdan bizgacha yetib kelgan maqollarning bir ko'rinishidir.

Yo'l yurib ketayotgan insofli odam bexosdan chuqurlikka toyib ketsa, o'rnidan turib, etak qoqib ketavermaydi. Men yiqildim, boshqalar yiqilmasin, deb chuqurni tekislab qo'yadi yoki birotta tayoqni suqib belgi qo'yib ketadi. Bu, ey yo'lovchi, ehtiyot bo'l, bu yerda chuqur bor, ko'zingga qara, degan ishora bo'ladi. Bobolar hikmati ana o'sha tayoqdir.

Odamlar boshqalardan o'ylab bekilgan buloq ko'zini ochadilar, daraxt ekadilar. Mendan keyin dunyoga keluvchilar tashnalik azobini ko'rmasinlar, ochlikdan, oftob tig'idan qiynalmasinlar, deya shunday qiladilar. Bobolar hikmati ana o'sha buloq, ana o'sha daraxtdir.

Hikmatli so'zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir.

Hikmatli so'zlar, maqollar – noma'lum shoirlarning yurak satrlari, ko'ksiga sanchilguvchi adolat tig'idir.

Har kimki vafo qilsa vafo topg'usidir,

Har kimki jafo qilsa jafo topg'usidir.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa jazo topg'usidir.⁵

Ulug' shoir Bobur Mirzo she'rga solgan shu bir xalq maqolida necha-necha kitoblarga jo bo'lgan qonun majmualarining ma'nosi bor.

O'z qadrini bilgan so'z qadrini biladi. Har bir inson o'z yurti kechmishini, hozirini mukammal bilmog'i, o'z ona tilisining zargari bo'lmog'i lozimdir. Maqol esa so'z ko'rkigina emas, dilning ham, umrning ham ko'rkidir. O'z qadrini bilgan odam so'zni pala-partish ishlatmaydi, uning asl ma'nosini qidiradi, bilib o'rniga qo'yib gapiradi. Bilgan odam, masalan, «huzurimga kiring» yoki «sizni lutfan

⁴ Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'si.- T.: O'zbekiston, 1997.- B. 108.

⁵ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma.-T., 2001.- B.5.

taklif etaman», demaydi. Huzur-hozir bo`lish lozim bo`lgan joy. Podshoning huzuri, katta amaldorning huzuri bo`lishi mumkin.

Demak, hikmatli so`zlar insonni shu kabi to`g`ri o`ylashga, mushohada yuritishga undaydigan so`zlardir.

Hadis (arabcha «hadis» - rivoyat, naql, hikoya, axborot yetkazish)- islom dinida Qur`ondan keyingi muqaddas manba. Muhammad payg`ambarning faoliyati va ko`rsatmalari haqida rivoyatlar majmui. Qur`on musulmonlar jamoasining barcha huquqiy va axloqiy masalalarini qamrab ololmaganligi sababli VII asr oxiri- VIII asr boshlarida hadislar yozila boshlagan. Hadislarda arab xalifaligidagi ziddiyatlar, islom ilohiyoti, shariat talqini ifodalanib, turli ijtimoiy guruhlar manfaati o`z ifodasini topgan. Shu bois, unda bir-biriga zid fikrlar yuzaga kelgan. Davrlar o`tishi bilan, hadislar tanlanib bir tizimga solina boshlagan. Hadislar to`plami «Sunna» deb nom olgan. Hadislarni yig`uvchi, sharhlovchi, targ`ib etuvchi shaxslar muhaddis deb atalgan.

Rasululloh sallallohu valayhissalamning turli sharoitlarda shariat ahkomlariga oid aytgan so`zlari ham hadisdir.

Hijriy III asr ilmi hadis uchun oltin davr bo`ldi. Mazkur davrda, ayniqsa, «Sahiyh» yo`nalishiga buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy asos solgan bo`lib, bu yo`nalishda yozilgan to`plamlarga faqat to`g`ri, ishonarli hadislar kiritilgan.

Hadislar xalqimizning turmush tarzi, xulq-atvori, salohiyati va hayotga munosatining tashkil topishi va ro`yobga chiqishida katta ahamiyat kasb etadi.

«O`zbek tilining izohli lug`ati»⁶ da hadisga quyidagicha ta`rif berilgan:

1. Hadis- Muhammad payg`ambardan qolgan gap-so`z hamda payg`ambar haqidagi rivoyatlar, hikoyalar. Masalan: Bir qancha mo``tabar kitob, oyat va hadislarni qarab chiqdim (G`ayratiyning «Dovdirash» asari). Madrasai Oliyada tafsir, hadis, ilmi kimyo kabi turli ilmlar o`qitilishini yozgan edi (M.Muhammadjonov. Turmush urinishlari» asaridan). Hadisi Sharif ayn. Hadis 1. U (Sultonmurod) diniy kitoblar – hadisi Sharif, hatto qur`on oyatlaridagi bir-biriga zid ta`birlar haqida savol berardi (Sh.Toshmatovning «Erk qushi» asaridan). Hadis

⁶ O`zbek tilining izohli lug`ati.- T., 2006.

oshi yoki oshi hadis Muhammad payg`ambarning aytib qoldirgan so`zlari, u haqidagi rivoyatlarni o`qish, eshitish maqsadida o`tkaziladigan ziyofat, yig`in.

2. Biror kimsaning aytgan so`zlari yoki gaplari; rivoyat, hikoya.

2. Hadis- kuch sinashish; sinashish. Masalan: Kurashchilar o`zlari hadis olishdi. – Ular (pahlavonlar) bir-birlarini sinash uchun hadis qilib uzoq aylanib yurdilar. (Mirkarim Osimning «Ajdodlarimiz» qissasi).

Biror ishni uddalashga bo`lgan ep, malaka, mahorat. Masalan: Qozog`istonlik polvonning hadisi ancha zo`r ekan, - dedi To`lamat mo`lov (S.Anorboyevning «Oqsoy» asari). Yo`q edi boyqushning hadis-hunari. («Alpomish» asaridan). Hadisini olmoq biror ish yoki hunarni juda yaxshi o`rganib, egallab olmoq.

Hikmatlar⁷... Har kuni har birimiz har kimdan eshitib, har kimga aytib yuradigan had-hisobsiz hikmatlar mavjud. Moziydan bizning zamonamizgacha asrlar osha, avlodlar va ajdodlar osha, ellar va elatlar osha, tillar va dillar osha yetib kelgan bu hikmatlar xalq tafakkurining, xalq hayotiy tajribasidan kelib chiqadigan xulosaviy fikrlarning ixcham va ko`rkam bir badiiy ifodasidir. Ularning har biriga butun-butun kitoblarga tatigulik keng va chuqur ma`no, his-tuyg`u jo bo`lgan. Shu bois, xalq asrlar davomida yaratgan, sayqal bergan har bir hikmatni to`laqonli, yetuk bir badiiy asar desak, mubolag`a qilmagan bo`lamiz.

Xo`sh, hikmat degani nima o`zi? Hikmat so`zining lug`aviy ma`nosi – o`ta donolik, aql-zakovat bilan oqilona aytilgan, «mixlab qo`yilgan», o`zgartirib bo`lmaydigan chuqur ma`noli gap, demakdir. Xalq ijodiyotining o`ziga xos bo`lgan bu janri og`zaki nutqda ham, yozma adabiyotda ham turli xil atamalar bilan nomlanadi: maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, hikmatli so`z ibora, ta`bir, aforizm, otalar so`zi, ota-bobolardan qolgan so`z, abushqa so`zi, mashoyixlar so`zi, donolar so`zi, donishmandlar so`zi, hikmatlar so`zi, oqinlar so`zi, qadimgilar so`zi, burungilar so`zi, ilgari o`tgan yaxshilar so`zi va h.k. Bular orasida maqol (ya`ni aytilgan, aytib qoldirilgan so`z) atamasi eng ko`p va ommaviy ravishda qo`llaniladi.

⁷ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma.-T., 2001.

Dono fikrni, o`tkir haqiqatni, teran mazmunni, so`z xazinasining duru javohirlarini o`zida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ekspressiv (ya`ni ta`sir etuvchi, his-hayajon uyg`otuvchi) vositalari orasida eng ta`sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o`ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadir. Ularning kishilik jamiyati va har bir inson hayoti uchun naqadar qimmatli ahamiyatga molik ekanligini jahon donishmandlari qadim-qadimdan e`tirof etib, qayta-qayta uqtirib kelganlar. Mana, shunday fikrlarning ayrimlari bilan tanishadigan bo`lsak, bunga yanada ishonch hosil qilish mumkin: «Barcha kishining kuchi ovqatdandir, aqlning kuchi esa hikmatdandir» (Aristotel); «Agar aqlli bo`lishni istasang, hikmat o`rgangilki, aql hikmat bilan kamol topadi» (Kaykovus); «Xalq orasida ko`pchilik tildan qo`ymaydigan so`z aslo o`lmaydi» (Gesiod); «So`zlar – asrga, fikrlar-asrlarga tatiydi» (N.M.Karamzin); «Qisqa ifodalangan o`tkir fikrlar hayotni yaxshilashga ko`p xizmat qiladi» (Siseron); «Men qadimgi donishmandlarning... bizga qoldirib ketgan aql durdonalarini ko`zdan kechiraman; agarki biz ulardan nimadir yaxshi bir narsaga duch kelsak, uni o`zlashtirib olamiz va juda katta foyda orttirgan bo`lamiz» (Suqrot); «Qadimdan odamlarning dono va bag`oyat go`zal hikmatli so`zlari mavjud; biz ulardan o`rganmog`imiz darkor... Turli-tuman tarbiyaviy hikoyatlar va hikmatli so`zlarni to`plash – tenngsiz davlatdir» (I.Gyote); «Katta maqollar to`plamini tuzish kerak. Bu esa, yozuvchilarimiz va notiqalarimiz uchun katta bir xazina bo`lib xizmat etadi».

Har bir xalq asrlar davomida juda hayotiy tajriba to`playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so`zlar ana shunday bebaho ma`naviy merosimiz hisoblanadi. Dunyoda hikmat durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha ko`z qorachig`iday asrab, avaylab, sayqal berib, dilida, tilida saqlab kelmayotgan biror xalq yo`q. O`zbek xalqi ana shularning biridir. Jahon madaniyatining ravnaqi uchun Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari ko`plab buyuk olimlar va

mutafakkirlarni yetishtirib bergan xalqimizning madaniyatini, donishmandligini, umuman, kamolotini ye yuzining jamoatchiligi qadimdan e'tirof etib kelingan.

Yevropaning taniqli olimi, professor G.Vamberi o'tgan asrning ikkinchi yarmida o'lkamizga qilgan safaridan qaytgach, quyidagi fikrlarni yozgan edi: «...Sharq qadimdan she'riyat tuyg'ulari o'lkasi bo'lib kelgan... Shuning uchun ham o'tovda istiqomat qiluvchi kishilarda she'riyatga bo'lgan ishtiyoq Parij yoki Londondagi ma'lumotli jamiyat a'zolaridagiga qaraganda kuchliroq ekanligiga hech kim ajablanmasligi kerak... O'rta Osiyoda bir-biriga muhabbat qo'ygan yosh oshiq-moshiqlar ham, ruhoniylar va oqsuyaklar ham – xullas, hamma-hamma poetik ijodiyotga bir xilda qiziqadi... Maqollarni yozma tilda ham, jonli tilda ham uchratish, yurt kazolarining saroyida ham, ko'chmanchining o'tovida ham eshitish mumkin... Sahro o'g'loni bunday «otalar so'zi»ni hamma vaqt yuziga jiddiy tus kiritgan holda tinglaydi. Maqol ma'nosiga zid bo'lgan hech qanday oqilona gap, hech qanday ishontiruvchi so'z uning fikriga ta'sir qila olmaydi, uning tabiatidagi tug'ma mutaassiblik hech narsaga ajdodlar va ular qoldirgan hikmatlarning donolik bilan aytilganiga, noto'g'ri aytilmaganiga astoydil, qattiq ishonchidan boshqa hech bir narsada bunchalik kuchli tarzda namoyon bo'lmaydi.⁸

Maqollarni «Hayot qomusi», og'zaki entsiklopediya, o'ziga xos bir badiiy tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular kishilarning aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlarni beradi.

Umuman, insoniyat yaratgan maqollarning mavzusi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, she'riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo'lib mavzu jihatidan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy normalardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha... o'z in'ikosini topgan. Qisqasi, tabiat va jamiyat hayotining

⁸ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma.-T., 2001.

biron-bir sohasi yo`qki, u maqollarda o`z aksini topmagan bo`lsin, deb dadil ayta olamiz.

Xalqimizning o`nlarcha asrlar davomida to`plangan boy hayotiy tajribasi son-sanoqsiz maqollarda umumlashtirilgan va tipiklashtirilgan. Ularda ota-bobolarimiz bosib o`tgan yo`lni, kechirgan turmushlarini, shodliklari va chekan azob-uqubatlarini, ezuvchi sinfga nisbatan bo`lgan qahr-g`azablarini, teran mazmunli pand-nasihatlarini, qadimgi davrlarda, o`rta asr va undan keyingi asrlarda yashagan ajdodlarimizning urf-odatlarini, an`analarini ko`ramiz, his etamiz. Ana shu boy ijod durdonalarini imkoni boricha to`la to`plash, chuqur o`rganish va nashr qilib, xalq ommasiga qayta taqdim etish – ezgu vazifalardan biridir.

O`zbekistonda maqol to`plamlari ancha-muncha nashr etilgan. Lekin, afsuski, ularni hali mukammal yig`ilgan maqollar deb bo`lmaydi. Xalqimiz asrlar davomida yaratgan va hozir ham yaratayotgan minglab, o`n minglab ajoyib maqollar og`izdan-og`izga, avloddan-avlodga o`tib yuribdi, ammo hali qog`ozga to`la tushirilganicha yo`q. Hamma gap ana shu durdonalarni bir xazinaga jamuljam qilishda qolgan. Shuning uchun ularni jamlash va o`rganish bugun uchun eng muhim masaladir.

Ota-bobolarimizning boy tajribalariga amal qilish, ularning an`analarini hozirgi zamon an`analari bilan boyitgan holda davom ettirish uchun bizga meros qoldirilgan maqollarni shunchaki o`rganish bilan cheklanmay, ularning ma`nosini chuqur bilmoq kerak bo`ladi.

Maqollar, hikmatlar zamonlar osha tobora sayqallanadi, pishiydi, mazmuni teranlashadi. Ba`zi hollarda esa, buning aksicha, eshituvchi va qayta talaffuz etuvchilarning muayyan maqolda aytilmoqchi bo`lgan ma`noni tushunmasligi yoxud eshitganini eslay olmay, o`zicha qo`shib-chatib aytishi, yoinki ma`lum bir fikrni isbotlamoq, ma`lum bir holni ifodalamoq uchun eshitgan maqoli tarkibidagi ayrim so`zlar o`rniga atayin boshqa so`zlarni ishlatib, asl ma`nosini va mazmunini boshqa tomonga burib aytishi oqibatida ko`pgina maqollar keyingi avlodlar orasida asliga nisbatan noto`g`ri, mantiqqa zid tarzda qo`llaniladigan

bo`lib qolgan. Bu holni hozir ham xalqimiz orasida qo`llanilayotgan va yozma adabiyotda, kinofilmlar va teatr tomoshalarida, matbuot, radio va televideniya ishlayotgan, hatto hikmat durdonalarning ayrim to`plamlariga kiritilgan bir qancha maqollarda ko`rish mumkin. Masalan: Ayrim asarlar va maqol to`plamlarida «Hayt» degan-tuyaga madad», maqolini «Hoy» degan tuyaga madad», «Chu» degan tuyaga madad» maqolini «Ha-ha» degan tuyaga madad» tarzida; «Erni nomus o`ldirar, quyonni qamish o`ldirar» maqolini «(Erni nomus o`ldirar, Quyonni qamchi o`ldirar» tarzida; «Piyozning po`sti ko`p, Yomonning do`sti ko`p» maqolini «Yong`oqning po`sti ko`p, Yomonning do`sti ko`p» tarzida; «Kasalni yashirsang, isitmasi oshkora qiladi» maqolini «O`limni yashirsang, isitmasi oshkora qiladi» tarzida; «Arzimaydi g`alvasi, kuydiradi shogirdonasi» maqolini «Arzimaydi g`alvasi, kuydiradi shavlasi» tarzida» «Yov qochsa, botir ko`payar» maqolini «Yov qochsa, dushman ko`payar» tarzida uchramiz. Bu kabi maqol, matal va hikmatli so`zlarning qaysi varianti to`g`riyu, qaysi varianti noto`g`ri ekanligini dars jarayonida o`quvchilarga tushuntirib boriladi.

Shuningdek, hikmatli so`zlarni aforizm ham deb yuritilishi xususida ishimizning boshlarida to`xtalib o`tgan edik. Shu o`rinda o`quvchida savol tug`ilishi tabiiy. Xo`sh, aforizm nima? U qanday ma`noni anglatadi? Biz ana shu savollarga javob berish orqali fikrimizni davom ettiramiz.

Aforizm yunoncha aphorismos -qisqa, hikmatli so`zdan olingan bo`lib, aniq va ixcham ifodalanib, tugal fikrni anglatuvchi hikmatli so`zlardir. Xalq donoligining ifodasi bo`lgan maqollar ham hikmatli so`zlarning bir turidir. Yozma adabiyot namoyondalari ham chuqur ma`noli fikr-mulohazalarini aniq va ixcham ifodalab, ajoyib aforizmlarni yaratganlar. O`zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan ayniqsa Alisher Navoiy bobomizning aforizmlari mashhurdir. Chunonchi:

Bilmaganni so`rab o`rgagan olim,

Orlanib so`ramagan o`ziga zolim.

Kamtarlik – hodisalar daryosida kishilik kemasining langaridir.

Shog`ol yonini tutmoq tovuq tuxumini qurutmoqdir.

Agar qilmadi el himoyat senga,
O`zingdan kerakdir shikoyat senga.

Bugungi kun adabiyotimizda ham qisqa va mukammal badiiy shaklda ifodalanib, chuqur ma`no bildiruvchi aforizmlar ko`p. Masalan:

Inson-bu naqadar sharaflı bir so`z!

(M.Gorkiy.)

Bu kabi aforizm, hikmatli so`zlarni nutqimiz jarayonida ko`p qo`llaymiz. Albatta, bularni o`quvchilarga dars jarayonida tushuntirib borish lozim.

Biz o`rganayotganimiz bo`limda ham Navoiyning hikmatlaridan namunalar berilgan. Shu hikmatlar bilan o`quvchilarni yaqindan tanishtirish mumkin:

«Navoiy hikmatlari.

Oz-oz o`rganib dono bo`lur,

Qatra-qatra yig`ilib daryo bo`lur.

Olamdan g`amsiz o`tay desang,

Ilm-u hunar o`rgan.

Aytar so`zni ayt,

Aytmas so`zdan qayt.

Tilga ixtiyorsiz-elga e`tiborsiz»⁹.

Albatta bu hikmatlar Alisher Navoiy haqidagi matn bilan bog`lab berilgan. Lekin o`quvchilar bu hikmatlar bilan yaqindan tanishish orqali, o`zlari uchun kerakli narsani ola biladidar.

Umuman olganda, hikmatlar va hadislarning tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Bular bilan tanishish orqali o`quvchilar o`zlari uchun katta ta`limiy va

⁹ Abdullayeva Q., Yusupov M., Mahmudova M., Rahmonbekova S. O`qish kitobi: (Bilim bog`i). 2-sinf uchun darslik.- T. :O`qituvchi, 5-nashri.- 2002.- B. 36.

tarbiyaviy saboq oladilar. Bu esa o'z navbatida ularning ijobiy hislatli va barkamol inson bo'lib yetishishlarini ta'minlaydi.

Nutq o'stirish jarayonida hadislar va hikmatlar juda katta ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida o'quvchilarni faqat bita mashg'ulot bilan bog'lab qo'ymay, mashg'ulot turini tez-tez o'zgartirib turish lozim. Aks holda o'quvchi tez charchab qoladi.

Hadislar va hikmatla bola uchun boy nutq manbai bo'lib, nutq a'zolarini taraqqiy ettiruvchi, ularning ziyrakligini oshiruvchi, tasavvurini kengaytiruvchi, tafakkuri va nutqni boyituvchi vositadir.

Hadislar va hikmatlarning tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga darslikda va darslikdan tashqari ham hadislar, va hikmatlarni o'rgatib borilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu o'z navbatida bolaning aqliy salohiyatining o'sishida, yaxshi tarbiya olishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

Ishimizning boshida ta'kidlab o'tganimizdek, boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikmatlar va hadislar o'rganish jarayonida o'quvchilarga bu kabi darslarni qiziqarli tarzda tashkil etib olib borish kerak. Shu bilan birga, o'qituvchi mavzuga oid Imom al-Buxori «Hadislar»i, «Hikmatlar» kitoblarini topib, darslikdagi bu kabi hadislar, hikmatlarning har birini qiziqarli tarzda tashkil etib tushuntirsa, o'quvchilarda bu darslarga o'zgacha qiziqish uyg'otadi. Bu o'z navbatida hadislar, hikmatlar bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi hadislar, hikmatlarni o'rgatish jarayonida albatta bolaning yoshi, xarakter xususiyatlarini e'tiborga olgan holda darslarini tashkil etib olib borishlari kerak. Bu ularning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

Shuningdek, yuqorida aytilgan fikr biz reja asosida ish olib borganimiz o'qish darslarida hadislar, hikmatlarni o'qish uslubiyotiga doir darslarga ham taalluqlidir. Bu darslar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otishi tabiiy albatta. Qachonki, ular uchun qiziqarli tarzda tashkil etib olib borilsa.

Umuman, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qish darslarida hadislar, hikmatlarni o'qish bo'yicha olib boradigan darslarini iloji boricha bir-birini takrorlamagan holda tashkil etib olib borishsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning uchun o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyani, integratsiyani, modulli texnologiyani chuqur bilishi, o'z kasbiga bo'lgan hurmatni yo'qotmagan holda darslarni tashkil etib olib borishlari lozim bo'ladi. Agar shularni bilishmasa, iloji boricha o'z kasbdoshlarining darslarini kuzatishlari, kerak bo'lsa malaka oshirish kurslarida malaka oshirib kelishlari kerak. Bu ham ularning mazkur mavzularni o'tishlari jarayonida o'zining ijobiy tomonlarini yaqqol ko'zga tashlanishiga sabab bo'ladi. Natijada esa boshlang'ich sinf o'qish darslarida hadislar, hikmatlarni o'qish bo'yicha olib borilgan darslarga katta qiziqish bilan munosabatda bo'lishadi, yaxshi taassurot olishadi. Bu esa ushbu mavzu bo'yicha ularning erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatibgina qolmay, o'zi

bemalol o`qish darslarida hikmatlar, hadislarni o`zlashtirib, tahlil qilish bo`yicha faoliyatlarini oshirishlariga ham sabab bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug` kelajagimizning asosiy omilidir // Xalq so`zi, 2013-yil, 7-dekabr.
2. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.- Toshkent: O`zbekiston, 2011.- 432 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.- 176 b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi (to`plam). – Toshkent, 2000.-64 b.
5. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o`qish darslari: O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma. – Toshkent: O`qituvchi, 2004. – 128 b.
6. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent, 2003.- 176 b.
7. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O`quv qo`llanma. – Toshkent: Adabiyot jamg`armasi, 2006.
8. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: O`qituvchi, 2000.- 198 b.
9. Matchonov S., Shojalilov A., G`ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O`qish kitobi: 4-sinf uchun darslik. - Toshkent: O`qituvchi, 2011. – 240 b.
10. Matchonov S., G`ulomova X., Dolimov Z. O`qish kitobi: 4-sinfda o`qish darslari: O`qituvchi kitobi.- Toshkent: Yagiyul poligraf servise, 2007.- 192 b.
11. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- 352 b.
12. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
13. Uzviylashtirilgan Davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi.- Toshkent, 2010.- 138 b.
14. Umarova M. O`qish kitobi: 3-sinf uchun darslik.- T.: O`qituvchi, 2012.- 224 b.

15. G'affarova T. O'qish kitobi: 2-sinf uchun darslik.- T.: Sharq, 2012.- 176 b.

Internet materiallari.

1. WWW. referat. uz.
2. WWW. rambler. literature. ru.
3. <http://www.gov.uz/uz/year/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014- yil 19- fevraldagi PQ-2133-son qarori
4. <http://daryo.uz/2014/03/04/soglom-bola-yili-davlat-dasturi>